

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TOPONIMIK QAYDLARI

*Jalilova Madina Murotovna
NamDU mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning leksik-semantik, etimologiyik, nominatsion-motivatsion, struktural jihatlari, dialektal va adabiy variantlari, imlo va talaffuziga doir izohlari, qaydlari, talqinlari tahlili va tavsifi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: toponimiya, toponim, oykonim, polisonim, komonim, ekklezionim, tarixiy-etimologik manba, leksik (lug‘aviy) asos, motiv, etimologiya, etimon, xalqona etimologiya, toponim variant.

Аннотация. В статье проводится анализ и описание лексико-семантического, этимологического, номинативно-мотивационного, структурного аспектов, диалектных и литературных, вариантов, написания и произношения некоторых топонимов в “Бобурноме” Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: топонимия, топоним, ойконим, полисоним, коммононим, экклезионим, историко-этимологический источник, лексическая (лексическая) основа, мотив, гидроним, этимология, этимология, народная этимология, топонимический вариант.

Abstrakt. The article describes the analysis and description of the lexical-semantic, etymological, nominative-motivational, structural aspects, dialectal and literary variants, spelling and pronunciation of some toponyms in “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur.

Key words: toponymy, toponym, oikonym, polysonym, commononym, ecclesionym, historical-etymological sourse, lexical base, motive, etymology, etymology, folk etymology, toponym variant.

“Boburnoma” adibning nomini butun dunyoga tanitgan qomusiy shoh asardir. Memuar yozuvchi xotirotlari, esdaliklari, guvohi bo‘lgan voqealar bayonidan tashkil topgan. Shu sababdan asarning asil nomini muallifning o‘zi “Vaqoyinoma”, ya’ni “Voqealar kundaligi” deb atagani bejiz emas. Chunki unda tarixning asl haqiqatlari aks etgan.

“Boburnoma” asari bizga shu jihat bilan ham ahamiyatligi, unda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston o‘lkasi toponimiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan. Chunonchi, memuarda jami 1200dan ortiq toponim keltirilgan bo‘lib, shular orasidan 27 tasini Bobur tili bilan aytganda vajhi tasmiyasi (etimologiyasi) qayd etilgan, XV-XVI asrdagi joy nomlari o‘sha davr talaffuzi va yozilishida berilgan. Asar etimologik

izohlar va taqqoslarga juda boy. Bobur asarda qayd etgan topominlarning etimologiyasiga juda qiziqqan va memuarda ularni ilmiy tahlilga tortgan. Bundan ikki xil maqsad ko‘zda tutilgan. Birinchidan, Bobur asarda keng qo‘llangan ba’zi forscha, mo‘g‘ulcha, hindcha onomastik birliklarni ma’nosini o‘quvchiga yetkazishga harakat qilgan. Ikkinchidan, toponim va narsa-hodisalarning mohiyatini yanada kengroq yoritishga intilgan.

Boburning toponimik merosi, geografiyaga oid masalalar Hamidulla Hasanov “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan”, “Geografik nomlar siri”, Suyun Qorayev “Toponimika” kabi asarlarida o‘rganilgan. Biz shularga tayanib, tahlil qilish asosida, Boburning toponimik qaydlarini kuzatish natijasida uning topominlarni memuarda berish nuqtai nazaridan quyidagi tamoyillarga ajratdik.

- I. Toponimni tog‘ridan to‘g‘ri izohlaydi
- II. Geografik xususiyatlari tavsifini beradi
- III. Nomning nomlanishiga e’tibor beradi
- IV. Nom haqidagi xalqona rivoyatlarni keltiradi

I. Bobur quyidagi o‘rinlarda toponimlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanish motivini izohlaydi: Bobur Samarcand shahri tasvirida Temurbek va Ulug‘bek mirzoning imoratlarini keltirgan. Shulardan Chinnixona – Samarcandda Bog‘i maydon ichidagi chordara (chorraha ustiga qurilgan inshoot). Bobur uni Amir Temur qurdirganini, ustini Xitoydan keltirilgan chinni bilan qoplatgani uchun Chinnixona deb atalishini ta‘kidlagan¹: Ushbu bog‘chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, **Chinixona** derlar. (60-b). Toponim ikki fors-tojikcha so‘zning birikuvidan chinni (idish-tovoq, izolyatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy va undan yasalgan buyumlar²) + xona (toponim yasovchi topoformant) yasalgan. Toponimiyada xona so‘zining funksiyasi keng bo‘lib, biron narsa ko‘p degan ma’noni ham ifodalaydi. Xona devor bilan bo‘lingan bo‘lmagina emas, o‘zining biron xususiyati bilan ajralib turadigan joy ma’nosini ham anglatadi³. Demak, Chinnixona oykonimi tarkibidagi xona so‘zi bu inshootni aylan-atrofi tamoman chinni bilan qoplanganlik xususiyatiga egaligini bildiradi.

Memuarda yana G‘azna mahallalaridan biri Ravzaning nomlanishini ham Bobur tushunarli izohlab o‘tgan: Sulton Mahmudning qabri G‘aznining mahallotidadurkim, sulton qabri anda uchun **Ravza** derlar, G‘aznining yaxshi uzumi Ravzadindur. (113-b). Ravza so‘zi arabcha bo‘lib, chamanzor, bog‘ demak. Biroq buyuk kishilarning qabrini gulzorga nisbat berib ba’zan ravza deb ataydilar⁴. Demak, Sulton Mahmudning qabri joylashganligi mavzening Ravza deb atalishiga motiv bo‘lgan.

Isfara viloyatining Hushyor qishlog‘iga yaqin tog‘ etagidagi chorqirrasimon uzun

¹ Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.561.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва, 1981. – www.ziyouz.com kutubxonasi. – Б. 370.

³ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 35.

⁴ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 310.

katta xarsangtosh. Sirti g‘oyat silliq, tarkibida metalli kiristallar ko‘pligidan oynaga o‘xshab qaraganning aksi ko‘ringan. Siyosiy vaziyat tufayli Bobur So‘x va Hushyor kentlarida bir yilcha turgan. Shuning uchun u Sangi Oyinani batafsil o‘rganish imkoniga ega bo‘lgan⁵. Adib Sangi Oyina toshining nomlanishini quyidagicha izohlaydi: Isfaraning bir shar‘isida janub sori pushtalarning‘ orasida bir parcha tosh tushubdur, “**Sangi Oyina**” derlar, uzunlug‘i taxminan o‘n qari bo‘lgay, balandlig‘i ba’zi yeri kishi bo‘yi, pastlari ba’zi yeri kishining belicha bo‘lgay, oyinadek har nima mun’akis bo‘lur. (35-b). Demak, bu toshning Oynak tosh deb atalishiga oynadek unda har narsa aks etish xususiyati sabab bo‘lgan. Sangi oyina (ko‘zgu tosh) bu onomastik birlik ot + ot shaklida qaralmish+qaratqich munosabatida bo‘lgan forsiy izofadir.

Shohi Kobul – Kobul qal‘asining janubiy qismida joylashgan tog‘. Oronimining nomlanishini Bobur shunday izohlaydi: Qal‘aning g‘arb-janub tarafi kichikrak parcha tog‘ tushubtur. Ul tog‘ning qullasida Shohi Kobul imorat qilgani uchun bu tog‘ni **Shohi Kobul** derlar. (107-b). Demak, tog‘ning nomlanishiga shu hududda solingan imorat egasi Kobul shohi motiv qilib olingan. Shuningdek, Porandiy Hindukush tog‘ining Bozorak dovoni etagidagi kent bo‘lib, Sarob eli Bozorak dovonini Porandiy kentiga tutashib ketganligi uchun ham shu qishloq nomi bilan bu ko‘talni aytishlarini qayd etgan: Bozorak ko‘talini Sarob eli Porandiy otliq kentiga inar uchun **Porandiy ko‘tali** derlar. (108-b).

Samarqandning qadimi masjidlaridan biri – Masjidi Laqlaqa. Bobur bu mavzening nomlanishini aynan izohlamasa-da, lekin o‘quvchiga joyning atalishiga sabab bo‘lgan hodisani keltirib o‘tadi: Samarqandning qal‘asining ichida yana bir qadimi imorattur, **Masjidi Laqlaqa** derlar. Ul gunbazning o‘rtasida yerga temsalar tamom gumbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amredur, hech kim muning sirlini bilmas. (60-b). Demak, bu masjidning nomlanishiga inshoot gunbazidan chiquvchi sirli laq-laq takroriy taqlid tovushi motiv bo‘lgan. Sirli tovush hosil bo‘lish sababini hech kim bilmasligini muallif ta’kidlab o‘tgan.

Boburning mohir toponimist ekanligiga yana bir dalil u o‘zi bunyod etgan maskanlarga chiroyli nomlar ham bera olgan. Jumladan, Nazargoh – G‘azni yaqinidagi Xoja Basta kentida Tutum daradan bir tepalik ustida bunyod etilgan bog‘ bo‘lib, bu bog‘ni kechik ro‘parasiga tushgani va o‘ziga tortadigan joy bo‘lganligi bois Bobur Nazargoh deb ataganini qayd etgan: Guzargohning muqobalasida tushgan uchun va yaxshi maddi nazari bor uchun, “**Nazargoh**”g‘a mavsum bo‘lib edi. (250-b).

II. Muallif ushbu toponimlar tavsifida ularning geografik xususiyatlariga (o‘simlik dunyosi, tabiat, iqlimi) e’tibor qaratadi. Farg‘ona viloyati tasvirida Konibodom shahrini alohida tasvirlab, bu shaharchaning nomlanish boisini o‘quvchiga sharhlab ketadi: Muning tavobiidin **Kandibodomdur**. Agarchi qasaba emas, yaxshig‘ina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo‘lur. Bu jihatdin bu ismg‘a mavsumdur.

⁵ Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.447.

Xurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur⁶. Bunday tabiiy sharoitga qarab nomlangan oykonimlar tabiiy oykonimlarning fitooykonimlar guruhiga kiradi. Chunki bu hududning nomlanishiga shu mavzedagi tabiiy muhit (bodomlarning yaxshi bo'lishi) sabab bo'lgan. Hozirgi kunda bu hudud Tojikiston Respublikasi Sug'd viloyatiga qarashli bo'lib, Konibodom deb ataladi. Mahalliy aholining fikriga ko'ra, Konibodom toponimi ikki qismidan: kon va bodom so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, bodom koni ma'nosini bildiradi. Aslida esa mazkur oykonimik nomning birinchi qismidagi kon so'zining ko'p, mo'l, serob ma'nosiga hech aloqasi yo'qligini, u aslida kand so'zi bo'lib, shahar ma'nosida qo'llanganligini va shuning uchun Kandibodom bodom shahri yoki bodomli shahar ma'nosini anglatishini biz asar mutolaasi orqali bilib olamiz.

Toponimlar, so'z etimologiyasiga alohida e'tibor bergenligiga asarda ko'p guvohi bo'lamiz. Masalan, Shahrисabz shahri nomini kelib chiqishini muallif shunday izohlaydi: Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun **Shahrисabz** ham derlar. (61-b.) Demak, bu shaharning nomlanishiga bahor chog'i sahrolari-yu shahri, dalalari-yu tomlari yashillikka burkangani, tabiat bilan birgalikda hamnafas bo'lgani sabab bo'lgan va Yashil shahar deb atalgan. Shahar nomi ikki so'zning (shahar sanskritcha davlat, mutlaqo hokimiyatning qarorgohi⁷ va sabz forstojikcha yashil, yashil rangli⁸) sifatlanmish+sifatlovchi munosabatida bo'lgan izofali toponimdir.

Hozirgi Zarafshon daryosi asarda Ko'hak suyi tarzida keltirilgan. Ko'hak Zarafshon daryosining o'rta asrlardagi nomi bo'lib, "Avesto"da Daytiya (Edgu suv) deyilgan. Bobur daryoning Ko'hak deb atalishiga Ko'hak tog'ining tagidan oqib o'tganligi, shu tog' nomi bilan atalishiga sabab bo'lganligini yozadi: "Bu suv bila Samarcand orasida bir pushta tushubtur, Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun **Ko'hak suyi** derlar. (59-b.) Ko'hak tojikcha so'z bo'lib, ko'h-tog', -ak kichraytirish qo'shimchasi bo'lib, kichik tog' suvi, tog' daryosi degan ma'nolarni anglatadi. Hozirda Ko'hak tog'i Cho'ponota deb ataladi.

Memuarda Ko'hi Safid oronimi nomlanishi tabiiy sharoit (qorning erimasligi) bilan bog'liq. Bobur bu oronimni shunday izohlaydi: ...bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihattin g'olibo **Ko'hi Safid** derlar. (110-b.) Ko'hi Safid forstojikcha so'z bo'lib, ko'h – tog', safid – oq, ya'ni, oq tog' degan ma'noni anglatadi. Sifatlanmish+sifatlovchi munosabatida bo'lgan izofali toponimdir. Tog'ning bunday nomlanishiga, tog'dan hech ham qor arimasligini sabab qilib keltiradi. Demak, hamisha qor arimaydigan bu tog' kishilarga oppoq ko'ringan va uning Ko'hi Safid deb nomlanishiga asos bo'lgan. Shuningdek, Hindukush tog'laridagi dovon Tulning

⁶ З.М.Бобур. Бобурнома.–Тошкент: Шарқ нашриёти , 2002. – Б.36. Мазкур нашрга яна мурожаат қилинганда жилди ва саҳифаси қавс ичидаги кўрсатилади.

⁷ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 50.

⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. – Тошкент: Университет, 2019. – Б .3.

uzunligi uning nomlanishiga asos bo‘lgan: Bu uch ko‘taldin yaxshirog‘i **Tuldur**. Vale yo‘li bir nima uzunroqdur. G‘olibo bu jihattin **Tul** derlar. (108-b).

Nomlanishiga geografik xususiyatlardan joylashuvi motiv bo‘lgan oronimga Haftbacha dovoni kiradi. Oronim fors-tojikcha Haft – yetti, bacha – bola – yetti bola degan ma’noni anglatadi. Bobur Badaxshon va Kobul orasida yastangan Hindukush tog‘ida joylashgan Haftbacha dovonining nomlanishini shunday dalillaydi: Yana bir Parvon yo‘lidur, ulug‘ ko‘tal bila Parvon orasida yana yetti ko‘tal bor uchun **Haftbacha** derlar. (108-b). Ya’nikim, Katta dovon bilan Parvon orasida yana yetti dovon borligi uchun bu dovonni Haftbacha – yetti bolali deb atashgan.

Ko‘li mag‘ok – Samarqanddan taxminan 2 km masofadagi joy nomi. Bobur bu hududning nomlanishiga geografik joylashuvi asos bo‘lganligini ta’kidlaydi: Yana bir **Ko‘li mag‘ok** o‘langidur... Bir yonida bir ulug‘ ko‘l voqi bo‘lubtur, bu jihattin **Ko‘li mag‘ok** o‘langi derlar. (61-b). Mag‘ok – 1. Chuqurlik, teshik, 2. pastlik joy⁹ degan ma’noni anglatib, agroonim yer yuzasining chuqurlik qismida va ko‘lning yonida joylashganligi uning nomlanishiga motiv bo‘lgan.

III. Bobur nomning nomlanishiga alohida e’tibor beradi. Hozirda Qashqadaryo viloyatining markazi Qarshi shahrining vajhi tasmiyasini Bobur quyidagicha izohlaydi: Yana **Qarshi** viloyatidurkim, **Nasaf** va **Naxshab** ham derlar, Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila “qarshi” derlar. G‘olibo, bu ot Chingizzon tasallutidin so‘ng bo‘lg‘ondur. (61-b.) Agar “Boburnoma” yozilmaganida edi biz bu shaharning nomlanishini asl mohiyatini bilolmas edik. Chunki qarshi so‘zi ko‘plab turkiy doston va tarixiy asarlarda, asosan, zid, ro‘para, saroy, qasr singari ma’nolarda uchrar edi, xolos. Bobur esa yuqoridagi parchada guvohi bo‘lganimizdek, shahar nomi sifatida qo‘yilgan qarshi so‘zining mo‘g‘ulcha ekanini, bu so‘z qabriston ma’nosini ifodalashini izohlab, asoslashga navbat kelganda, shaharning Chingizzon istilosi qurban ni bo‘lgani bilan izohlaydi. Demak, bu shaharning buningdek fojiali nomlanishiga jamiyat hayotida yuz bergen bosqinchilikning oqibati sabab bo‘lgan. Shuningdek, bu shaharni mo‘g‘ul bosqiniga qadar Nasaf va Naxshab deb atalganini ham alohida ta’kidlab o‘tadi.

Bobur ziyrak tilshunos sifatida tilning tovush jihatiga ham alohida e’tibor bilan qaraydi. Tarixni yaxshi bilganligi sababli ayrim joy nomlarining atalishiga tarixan yondashadi va bu xususida o‘zining fikrlarini ham erkin bayon etadi. Masalan, Kobulning sharqida joylashgan Lamg‘onot viloyatining nomlanishiga kishi nomi asos bo‘lganligini ta’kidlaydi va Lamg‘on etimologiyasini grammatik asoslaydi: Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba’zi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar. Ul elni xeyli mulohaza qilibturkim, ba’zi mahal “kof” o‘runiga “g‘ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni **Lamg‘on** debturlar. (110-b.) Shuningdek, ba’zi o‘rinlarda bu viloyatni Lamg‘onot deb

⁹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. – Тошкент, 1983. – II т. – Б.283.

ham qayd etadi: Sharqi **Lamg‘onottur**. Bu viloyat besh tuman va ikki bo‘luktur (109-b.) Lamg‘onot nomi tarkibidagi -ot (t) affiksi toponim yasovchi qo‘s Shimcha bo‘lib, ikki xil yo‘l bilan paydo bo‘lgan: biri arabcha bo‘lsa, biri sug‘diychadir. Yuqoridagi parchada joy nomi yasovchi qo‘s Shimcha vazifasini bajargan.

Ijodkor ayrim joy nomlarini o‘zi ilmiy tahlil etishga, mavzening nomlanish motivlarini aniqlashga harakat qiladi. Jumladan, G‘urband tumanining nomlanishini shunday izohlaydi: Ul viloyatlarda ko‘tallarni band derlar. G‘o‘r sari bu ko‘tal bila borurlar, g‘olibo ul jihatdin **G‘urband** debturlar. (112-b). Demak, oykonim ikki ot so‘z turkumidagi so‘zning birikuvidan (G‘o‘r +band) yasalgan.

Shuningdek, Bobur Kashmir toponimining etimologiyasiga juda qiziqadi, hind xalqidan so‘raydi, taftish o‘tkazadi, ammo aniq ma’lumot topa olmay o‘zi tahlil qiladi: Hinduston elidin muncha tahqiq va taftish qilildi, hech kim bu tavoyifdin tahqiq xabar ayta olmadi. Ushmuncha deydurlarkim, bu tog‘ elini Kas derlar. Xotirg‘a yettim, Hinduston eli "shin"ni "sin" talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mo‘tabar shahr **Kashmirdur**, balki **Kashmirdin** o‘zga bu tog‘da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo‘la olurkim, "**Kasmir**" demish bo‘lg‘aylar. (197-b.)

Bobur fors-tojik, arab, afg‘on (pushtu), urdu (Pokistonda yashovchi aholi tili), hind tillarini ham bilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak u bizga toponimlar haqida bir-biridan qiziq va aniq ma’lumotlar bergen, ularning nomlarini tahlil qila olgan. Jumladan, Bobur tabiat mo‘jizalari bo‘lgan tog‘larning nomiga ham alohida e’tibor qaratadi. Kobulda Hindukush deb ataluvchi tog‘ni hindlar Savalak Parbat deb ataganlarini yozadi va tushunarli izohlaydi: Bu tog‘ii Hind eli **Savalak Parbat** derlar, hind tili bila “sava” – rub, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya’ni rub va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay... Ushbu tog‘ Kobulda Hindukushqa mavsumdur. (197-b). Hindukush tog‘i Osiyodagi yirik tog‘ tizmasi bo‘lib, 800 km chamasi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, hind xalqi bu tog‘ning uzunligiga ishora qilib, Savalak Parbat – Yuz yigirma besh ming tog‘ deb atashgan. Savalak Parbat degan nom hozir ham geografik adabiyotda qo‘llaniladi, bu Himolayning shimoldan janubgacha uzundan uzoq cho‘zilgan, lekin pastroq tog‘oldidir, yuz yigirma besh ming tepalik deganicha bor¹⁰.

Rivoyatlarga ko‘ra, bu tog‘larda ko‘p hindular halok bo‘lgan. XIV asrda yashagan arab sayyohi Ibn Battuta bunday yozgan: “Hindukush deb ataladigan tog‘lardan o‘tdik, bu “hindular qotili” demakdir. Chunki Hindistondan keltirilayotga juda ko‘p qullar qalin qor va qattiq sovuq dastidan halok bo‘lganlar. Tog‘ning nomi ba’zan Hinduko‘h (Hind tog‘i) tarzida ham yozilgan¹¹.

Memuarda qisman ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar ham uchraydi. Etnooronim – urug‘ qabila, millat, xalq nomlari (etnonimlar) asosida shakllangan oronimlarning

¹⁰ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б.13.

¹¹ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б.120.

atoqli nomlari. Chunonchi, Bhiradan shimoldagi Ko‘hi Jud oronimi Jud etnonimiga nisbat berib nomlanganligini Bobur qayd etgan: Bu tog‘ii “Zafarnoma”da va ba’zi kitoblarda **“Ko‘hi Jud”** bitibturlar, vajhi tasmiyasi ma’lum emas edi, so‘ngralar ma’lum bo‘ldi: bu tog‘da bir ota naslidin ikki xil el bor. Birini jud derlar va birini janjuha. Bu tog‘dag‘i va Nilob bila Bhira orasidag‘i el va ulusg‘a bular qadimdin hokim va farmonravo bo‘la kelgandurlar. ...Bu tog‘ judka mansub qilib, **Ko‘hi Jud** debturlar. (165-166-b.) Jud qavmi bu tog‘dagi va Nilob bilan Bhira orasidagi el-ulusga qadimdan hokimlik qilib, ularni boshqarib kelganligi uchun va bu tog‘ni Jud eliga qarashli ekanligini bildirib Ko‘hi Jud deb nomlaganlar. Demak, bu oronimning nomlanishiga Jud etnonimi motiv bo‘lgan.

Bundan tashqari, asarda Masjidi Muqatta – Ulug‘bek Samarqandda qurdirgan masjidning nomlanishini muallif uning qurilishi, me’morchiligi bilan bog‘lab izohlaydi: Bu jihattin **Muqatta** derlarkim, qit‘a-qit‘a yig‘ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoiy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo‘sunluqtur. (60-b). Bobur inshootning devorlari va shifti islomiy va xitoycha naqshli taxtalar bilan qoplanganini bu yog‘ochlar bo‘lak-bo‘lak (qit‘a-qit‘a) bo‘lgani uchun (Muqatta – parcha¹²) Masjidi Muqatta deb atalganini qayd etgan.

Memuarda Bobur Samarqand tevarak-atrofida yaxshi o‘langlari borligi, ular ichida eng mashhuri Konigil o‘langi ekanligini aytadi. Ba’zilar bu o‘langni Koni gil, ya’ni tuproq koni desalar, Fazlulloh bin Ro‘zbexon “Mehmonomai Buxoro” asarida Koni gul, ya’ni gullar koni deydi. Bobur esa bu o‘langning asli oti Konobgir (ko‘lmak) deb atalishini, biroq tarixlarda faqat Konigil deb yozadilar deya ta’kidlaydi: Bir mashhur o‘lang **Konigil** o‘langidur...Bu suvning atrofi tamom obgirdur. Ba’zi derlarkim, bu o‘langning asli oti **Konobgir** ekandur, vale tarixlarda tamom **Konigil** bitirlar. (60-b). Bobur mirzo bu o‘langning xalq orasida Konobgir deb atalishining boisi, sayxonlik o‘rtasidan Obirahmat (Qorasuv) arig‘ining oqib o‘tganligi, bu suvning atrofi butunlay obgir-botqoq bo‘lganligi bilan izohlaydi.

Go‘spandliyor – Afg‘onistonda Bangash va Bannu viloyatlarini bog‘lovchi yo‘l. Bu yo‘l (dromonim) orqali qo‘ychi va cho‘ponlar, asosan, qo‘ylarni haydab olib o‘tishgan. Yo‘l tor tog‘ yo‘li bo‘lganligi bois otliq yo‘lovchilar, karvonlar yurmagan. Bobur bu toponimni ham juda sinchkovlik bilan aniq va tushunarli qilib izohlaydi, o‘quvchida savolga o‘rin qolmaydi: Qo‘ychi va cho‘pon gohi gala va ramani bu yo‘l va tangi bila indurur uchun bu yo‘lni **Go‘spandliyor** der emishlar. Yo‘lni afg‘on tili bila liyor derlar. (119-b). Demak, bu dromonim (yo‘llarning atoqli oti) tuzilishiga ko‘ra qo‘shma tarkibli bo‘lib, Go‘sfand (forscha qo‘y)¹³ + liyor (afg‘oncha yo‘l) yasalgan bo‘lib, qo‘y yo‘li degan ma’noni anglatgan.

Bobur memuarda uchraydigan o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lgan ba’zi hindcha

¹² Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун кисқача изоҳли лугат. – Андижон, 2008. – Б.115.

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. www.ziyouz.com kutubxonasi. Б. 532.

toponimlarni ham izohlab o‘tadi. Jumladan, u Man Sing va Bikramajit imoratlarini yurib sayr etganligini, barcha rojalar imoratidan Man Singning imorati yaxshi va balandroq ekanligini qayd etgan. Shuningdek, Man Sing qal’asining sharq tarafida devori burji ostida Haatiy Po‘l joylashganligini aytib, uni shunday izohlaydi: Pilni “haatiy” derlar, darvozani “po‘l”. Bu darvozaning chiqishida bir filning suratini mujassam qilubturlar, ustida ikki filbon ham qilibturlar; biaynihi fil, heyli mushobih qilibturlar. Bu jihatting “**Haatiy Po‘l**” derlar. (238-b). Demak, bu darvozaning chiqishida fil suratini tasvirlashgani bois, shunga ishora qilib Fil darvozasi – Haatiy Po‘l deb atashgan.

IV. Bobur quyidagi toponimlar izohida xalqona rivoyatlarni keltiradi: Xoja Seyoron derlar. Bu chashmada va bu chashmaning atrofida uch nav daraxtlardur. Chashmaning o‘rtasida qalin chinor daraxtlaridur, latif soyasi bordur. Chashmaning ikki tarafida tog‘ tubidagi nushtalarda qalin balut daraxtidur. Ushbu ikki parcha balutistondin o‘zga Kobulning g‘arbiy tog‘ida balut daraxti aslo bo‘lmas. Chashmaning olidakim, dasht tarfi bo‘lg‘ay, qalin arg‘uvonzor voqi bo‘lubtur. Bu viloyatta ushbu arg‘uvonzordin o‘zga arg‘uvonzor aslo yo‘qtur. Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidur. **Seyorong‘a** vajhi tasmiya muni derlar. (112-b.) Kishilar odatda o‘zлari uchun tushunarsiz bo‘lgan nomlardan ma’no axtara boshlaydilar va o‘z tillariga moslashtirib talaffuz qilishga intiladilar. Xalq etimologiyasi shu yo‘sinda paydo bo‘ladi va shu tariqa rivoyatlar ham to‘qiladi. Chunonchi, Seyoroning vajhi tasmiyasi ham rivoyatga qorishilgan holda izohlangan. Seyoron – fors-tojikcha so‘z bo‘lib, “uch do‘st” ma’nosini anglatadi. Buloq atrofida uch xil daraxtning (chinor, balut, arg‘uvon) borligi va Kobulning boshqa joylarida bu daraxtlarning o’smasligi xalq tomonidan yuqoridagi rivoyatni yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

Takasekretku (Takasekrikan) – Andijonning shimol tarafida Sirdaryoning toraygan qismida joylashgan. Memuarda bu hudud Umarshayx Mirzo bilan uning qaynotasi Yunusxon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang munosabati bilan tilga olingan. Bobur bu o‘zanning nomlanishiga quyidagi rivoyatni asos qilib keltiradi: ...Sayhun daryosining yoqasida **Takasekretku** degan yerda. Bu jihatdin ul mavzi bu ismg‘a mavsumdurkim, tog‘ domanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul yerdin taka sekrigandur. (37-b). H.Hasanov Takasekretu Norin daryosining Uchqo‘rg‘on qishlog‘i yaqinidagi tor qisig‘i bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgan. Biroq S. Jalilov bu joyni Qoradaryodan qidirmoq kerak deydi. Shunday qilib Takasekretku qayerda ekanligi ma’lum emas¹⁴.

Hodarvesh – Xo‘jand va Konibodom orasidagi dasht. Tez-tez qattiq shamol esib turishi bilan mashhur bo‘lgan. Bobur ham bu yerdan o‘tayotib, uning shamoliga yo‘liqqan. Keyinchalik bu dasht Qaroqchiquum, Qayroqum deyilgan. Hozir katta

¹⁴ Qorayev S. Toponomika. – Toshkent, 2006. – B. 309.

qismini Qayroqum suv ombori egallagan¹⁵. Adib Qayroqum cho‘li haqida bunday deydi: Derlarkim. Bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay “Ho darvesh”, “Ho darvesh” deya-deya tamom halok bo‘lurlar, andin beri bu bodiyani **Hodarvesh** derlar. (36-b).

Xulosa qilib aytganda, Boburning noyob iqtidor egaligi shundaki, u o‘z ona tili bo‘lgan turkiy tilni, shuningdek, fors-tojik, arab, afg‘on (pushtu), hind tillarini ham mukammal bilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak u bizga forsiycha, afg‘oncha, hindcha toponimlar haqida bir-biridan qiziq va aniq ma’lumotlar bergan, ularning nomlarini zakiylik bilan izohlagan. Sinchkovligi bois ayrim toponimlar haqida xalq og‘zidan eshitgan rivoyatlarini ham keltirgan. Muallif asarda shunchaki toponimlarni sanab o‘tmaydi, balki til ilmining eng qiziqarli sohasi – etimologiya xususida ham juda muhim, teran ilmiy kuzatishlarini bayon etadi. So‘z etimologiyasi joy nomiga nisbatan tekshirilganda Bobur o‘sha so‘zning yasalishi va nom qo‘yilishiga tarixan yondashadi. Joy nomlarini izohini, atalishiga sabab bo‘lgan voqealarni, guvohi bo‘lgan hodisa va o‘zining xulosalarini birma-bir keltiradi.

Memuarda qayd etilgan toponimlar aksariyati ikki komponentli. Bu onomastik birliklar ot + ot shaklida qaralmish+qaratqich munosabatida bo‘lgan forsiy izofadir. Shuningdek affiksli toponimlar ham uchraydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006.
- Захиридин Мухаммад Бобур. Бобурнома.–Тошкент: Шарқ , 2002.
- Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.
- Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
- Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2019.
- Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати.www.ziyouz.com kutubxonasi.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва, 1981. – www.ziyouz.com kutubxonasi.
- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1983. – II т.
- Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. – Андижон, 2008.

¹⁵ Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.646.